

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasini tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayev</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

## VRACH-SHIFOKORNING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA QO'YILADIGAN VAZIFALAR

## ТРЕБОВАНИЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВРАЧА-ПЕДАГОГА

## DUTIES APPLIED TO THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF A PHYSICIAN-TEACHER

Kuzibayeva Mahfuza Mirzayevna<sup>1</sup><sup>1</sup>Andijon davlat tibbiyot instituti, O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasida dotsenti**Annotasiya**

Maqolada tibbiy professional ta'limda saboq olayotgan talabalarning pedagogik kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablari haqida fikrlar bayon qilinadi. Ma'naviy yangilanish jarayonida ta'lim tizimining fan va yutuqlar asosida isloh qilish muhim vazifalardan biri ekanligi haqida so'z boradi.

**Аннотация**

В статье рассмотрены современные требования к будущей педагогической деятельности студентов, обучающихся по направлению профессионального образования. А также в ней говорится о важности реформирования образования на основе достижений науки в процессе духовного обновления.

**Abstract**

The article describes the modern requirements for pedagogic professional activity of medical students. It is said that one of the important tasks is to reform the education system based on science and achievements in the process of spiritual renewal.

**Kalit so'zlar:** pedagogik faoliyat, o'quv maqsadlari, kasbiy tayyorgarlik, ruhiy-pedagogik tayyorgarlik, pedagogik saviya, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, учебные цели, профессиональная подготовка, психико-педагогическая подготовка, педагогический потенциал, педагогическое воздействие.

**Key words:** pedagogical activity, educational goals, professional training, mental-pedagogical preparation, pedagogical level, pedagogical influence.

**KIRISH**

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichi kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishni ma'naviyatimiz zimmasiga yuklagan.

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurishda kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot mamot masalasiga aylanib bormoqda"[1.1.], - deb juda to'g'ri ta'kidladi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Pedagogik faoliyatning mazmuni asosan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, yoshlarga tarbiya berish uchun, layoqatli, talab doirasida barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslarning alohida faoliyatini tashkil etadi. Aniqroq qilib aytganda, o'qituvchilarning mehnat faoliyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan murakkab, ziddiyatli va uzoq davom etadigan jarayondir.

Shifokor-o'qituvchi kasbini egallagan har bir inson, avvalo, o'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etishi, shuningdek, o'qituvchining ruhiy – pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni atroflicha o'zlashtirgan bo'lishi, tanlangan ixtisoslik yuzasidan kerakli doirada pedagogik texnologiya ko'nikmalarini egallagan, pedagogik mahorat, texnika, takt, ziyraklik, kuzatuvchanlik, bilimlarni talabalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i juda muhim.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda pedagogik

faoliyatga, uning mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash Milliy dasturini bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan pedagog faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir.

Shunday ekan, har tomonlama barkamol insonni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi bilimdonlik va mahorat osonlik bilan shakllanmaydi [2.2]. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi, izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi kerak. Pedagogik mahoratda o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi alohida e'tiborga olinadi. Chunki, kishida bilim, fikr doirasi keng bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Buning uchun har bir shifokor-pedagog O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatilganidek, o'z fanining tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarligi va yuqori axloqiy fazilat egasi bo'lishi darkor.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasining mazmunini boyitish jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O'qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini ta'minlaydi. Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va mutaxassislikka bo'lgan qiziqishini yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorlikda bilim ko'nikmalarini jadallik bilan amalga oshirishga yo'naltiriladi [2.3].

"O'qitish – bu o'qituvchi va talaba orasidagi munosabatning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni bo'lib uning davomida inson ma'lumotli bo'ladi" [3.1]. Ushbu ifodadan o'qitish sifati, maqsadlarni shakllantirish sifatiga bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Pedagogik texnologiyada maqsadlarni shakllantirish umumiylikdan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, mazkur o'quv fanining ma'lum mutaxassisni tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati aniqlanadi.

### XULOSA

O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi kerak [4.4.]. Zero, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbining tegishli ma'lumoti, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o'rganishi va baholay olishi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

### ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: Fan, 2006.
3. Ziyamuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. –T.: "Turon-Iqbol", 2006. -223 b.
4. Qo'ziyoyeva M.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Andijon, 2020.
5. Кузибаева М.М. Роль врача-педагога в учебно-воспитательном процессе. Экономика и социум» Электронное научно-практическое периодическое международное издание. ISSN 2255-1545 № 2(45)-2018. Сайт: <http://www.iupr.ru>.